

The Expression of National Culture in Polysemantisms

¹Eshmirzaev Bahodir Jurayevich, ²Amirqulov Sanjar Sayitmuratovich, ³Ismoilov Behruz

^{1,2} Teachers of Denov branch of Termiz State university.

³ Student of Denov branch of Termiz State university

Annotation: *This article analyzes the evolutionary, historical and contemporary meanings of some polysemantic lexemes, including the features of national culture, including decorating, scarring, gait, ear, pollination, polymematic lexemes, and the effects of these lexemes on our national culture imposed.*

Key words: polysemy, polysemantic lexeme, national culture, evfemism, spelling.

Barcha fanlar qatori tilshunoslik sohasi ham tarixiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Har qanday til o'z taraqqiyoti jarayonida umumiy jihatlardan farqli ravishda, o'ziga xos xususiy tomonlarini ham namoyon qilib boradi. Ya'ni til mavjud ekan, o'z egasining nuqtai nazari, dunyoqarashi, tafakkuri va turmush tarzidan ayri holda yashay ham, rivojlana ham olmaydi.

O'zbek tili ham o'z egasining ruhi, tabiati, turmush tarzi va tafakkuriga muvofiq ravishda shakllanib, rivojlanib, taraqqiyot topib borgan.

Quyida ba'zi bir polisemantik leksemalarning milliy madaniyatimizga xos xususiy jihatlarini tahlil qilib ko'ramiz.

Bezamoq leksemasi (bosh ma'no) oro berish, pardoqlash ma'nolarini ifodalaydi. Hosila ma'nosi bilan esa nutq elementlarining chiroyli va ta'sirli qo'llanishiga yoki qo'shimcha vositalarning qo'llanishiga bog'liq mazmuni ham bera oladi.[1] Xususan, gapni **bezamoq** birikmasida anglashilayotgan ma'no faqat o'zbeklarga xos umummilliy xususiyatiga ega bo'lib, o'zbek xalqi azal-azaldan bir gapni yetkazishda to'g'ridan-to'g'ri so'z qotmasdan, gapga oro berib, **Qog'ozga o'rab gapirish** qabilida ish tutgan deyish mumkin.

Bu holat, masalan, evfemizmlarda ham kuzatiladi: *O'ldi-vafot etdi. Tug'di-ko'zi yoridi.*[2]

Pardalamoq leksemasi ibo-hayo, or-nomus, andisha kabi tushunchalar bilan uzviy boliq bo'lib, ushbu leksemani ham o'zbek xalqining chiroyli va nafis so'zlash mahoratidan bir namuna deyish mumkin. Xalq qoniga singib ketgan yuksak fazilatlar uning so'zida ham namoyon bo'ladi. Ba'zi bir xabar, axborotlarda shunday so'z yoki birikmalar mavjud bo'ladiki, ularni tinglovchiga o'z xolicha emas, aksincha, andishali tarzda yetkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Otlanmoq leksemasi, dastavval, eski o'zbek adabiy tilining ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan, keyinchalik, ma'nosi kengayib umumiylik kasb etgan leksemalardan biridir. Uning bosh va hosila ma'nosi quyidagicha:

1) *Otga minmoq* (bosh ma'no) – bu *otlanmoq* leksemasining tarixiy ma'nosi, yani bugungi ma'noga asos bo'lgan ma'no. Otda yurish o'zbeklarga xos odatlardan biri bo'lgan. Har qanday

uzoq-yaqin safarda insonga ot hamroh bo'lgan. Shuning uchun ham bu leksema juda keng qo'llana borgan.

2) *Yo'lga tushmoq, hozirlanmoq – otlanmoq* leksemasining hozirgi zamonaviy ma'nosi (hosila ma'no) bo'lib, safar oldidan hozirlik, tayyorgarlik ko'rish ma'nosini bildiradi. Boshqa bir tilda xuddi shu leksemaning aynan tarjimasini yoki varianti bu tushunchalarni ifodalay olmaydi.[3]

Quloq leksemasi insonda eshitish vazifasini bajaruvchi ta'na a'zolaridan biri bo'lib, til egasining tafakkur faoliyati bilan bog'liq holda o'ziga xos polisemiyaga uchragan. O'zbeklarning o'troq hayoti qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan. Asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan o'zbek xalqi nutqida polisemiyaning shunday qiziq holatlari kuzatiladi:[4]

1) *Quloq-* katta ariqning kichik ariqlarga suv tarqaydigan joyi:

Quloqqa qarab-qarab qo'ying – suvni kimdir boshqarib ketmasin tag'in. (Q.A)

2) *Quloq*- o'simlikning birinchi maysasi, ya'ni o't-o'lanning ilk maysa ko'rinishi, dastlabki bargchalari.

Makkalarning qulog'i ko'rinib qolibdi-ku (Q.A)

Kulib boqdi oftoboy

Boshim chiqdi deb qordan

Quloq yoymish maysalar

Darak berib bahordan (B.A)

Polisemiyaning aynan ushbu ko'rinishi boshqa tillarda mavjud emas.

Yorilmoq leksemasi dastlab *yor(moq)* fe'liga avval majhul nisbat qo'shimchasining qo'shilishi orqali jonsiz narsalarga yoki ta'na a'zolarining biror qismiga shikast yetgan holatini nomlagan bo'lsa, keyinchalik ushbu leksema o'zlik nisbat qo'shimchasi bilan birgalikda insonga tegishli ma'lum bir holat, ya'ni dardini izhor qilish, sirini ochish kabi yangi ma'nolarni bergan.

Xulosa qilib aytganda, polisemantik so'z ma'nolaridagi umumiyliklarida til egalari bo'lgan millatning madaniyati aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent. O'zbekiston 1992.
- [2]. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boiva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma – Toshkent 2009.
- [3]. Z. Azamatova. Tilshunoslik nazariyasida leksemalarning ishlatilishi. Toshkent. O'qituvchi 1987.
- [4]. M. Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Tilshunoslik. Toshkent 2007 yil.
- [5]. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent. O'zbekiston 1992.
- [6]. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boiva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma – Toshkent 2009.
- [7]. Z. Azamatova. Tilshunoslik nazariyasida leksemalarning ishlatilishi. Toshkent. O'qituvchi 1987
- [8]. M. Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Tilshunoslik. Toshkent 2007 yil.